

MAKTAB O'QUVCHILARIDA DEVIANT XULQ-ATVORNI OLDINI OLISH MASALALARI

Allaberganova Husniyabonu Tangribergan qizi

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 2-son

umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ijtimoiy normalar jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi ekanligi, ijtimoiy normalar shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmui ekanligi, globallashuv davrida ijtimoiy normalar tizimidagi jiddiy o'zgarishlar va tendensiyalarning mohiyati, atvorlar og'ishiga ta'sir etuvchi zamonaviy omillar – ni o'rganish tamoyillarining roli. – internet, virtual dunyo, axborot oqimining tahlili, uning sotsiologik jihatlarini o'rganish va yoshlar muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonida ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xavflar va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan turli jihatlarga ega. Birinchi farq uzoq davom etadigan ijtimoiy zararli odatlar deviant xulq-atvor turmush tarzining ajralmas qismiga aylanadi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, ijtimoiy funksiya, jinoyatchilik, ijtimoiy norma, o'smir, profilaktika.

KIRISH: Voyaga yetmaganlarning deviant hulq-atvori katta yoshdagilarning og'ma hulq-atvori qonuniyatlariga muvofiq emasligini qayd etish zarur. Jumladan, kriminologiya umum tomonidan qabul qilingan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan hulq-atvor normalariga zid bo'lgan maxsus qadriyatlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Va shu sababli jinoyatchilikni, eng avvalo, professional jinoyatchilikni tahlil qilish asosial submadaniyat nazariyasiga asoslanadi. Biroq, voyaga yetmaganlarga tatbiqan bunday yondashuv hamisha ham to'g'ri emas. Masalan, ko'pincha o'smir sodir etilgan qilmishni inkor etmagan holda, o'z aybiga iqror bo'lmaydi yoki o'zi prinsip jihatidan inkor etmaydigan huquqiy taqiqni buzadi. Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar diqqat-e'tiborni hozirgi vaqtda deviant hulq-atvor guruhiga ko'proq moddiy jihatdan o'ziga to'q oilalarning bolalari va o'smirlari tushib qolishiga qaratadilar.

Umuman olganda, "bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlamlaridan biri, deviant hulq-atvordan himoyalangan, deb bo'lmaydi, hat bir o'smir ta'sirga va

bog'liqlikka duch keladi. Moddiy jihatdan yetarlilik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqeyi bolalarning ijtimoiy normalarga rioya qilishning kafili bo'la olmaydi".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi obyektiv ochib berildi. Ibn Sino yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Giddens E. Sotsiologiya. kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so'rovi ma'lumotlari bo'yicha televideniye o'smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalrok manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli o'sadi. Ijtimoiy reklama o'z takliflari bilan —mehnatni rag'batlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targ'ib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga ko'maklashadi... Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzi targ'ib qilinishini ham nazarda tutadi.

Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta'sir ko'rsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bog'liq huquqiy choralar —ishlashil uchun u bolaning ongiga qo'yilishi, uning e'tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan erishish mumkin. Bizga ma'lumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan ko'plab jinoyatlar, jumladan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganishda voyaga yetmagan jinoyatchilarning ma'naviy-ahloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, oilada yoki ko'cha-ko'yda turli xil ahloqsiz xatti-harakatlarning guvohi bo'lgan o'smir, ahloqsizlik jinoyatlarini ham sodir qilishga qo'l uradi. Bunday jinoyatlar qatoriga voyaga yetmagan o'smirlar tomonidan nomusga tegish hollarini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, shu o'rinda bir savol tug'iladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? Shu o'rinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shartsharoitlarga, sabablarga to'xtalib o'tamiz. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan juda ko'pchilik shug'ullanadi. Bular - ota-onalar, oilani katta yoshdagi boshqa a'zolari, maktabgacha bo'lgan, maktab o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari muassasalaridagi o'qituvchilar jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Darhaqiqat, ana shu voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ular

tarbiyasidagi ta'siri kelajakda o'z ta'sirini o'tkazadi. Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki ma'naviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to'g'ri keladi. Shu o'rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo'lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar tomonidan ahloqsizlik xattiharakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so'z yuritiladi. Jumladan, V.Ya.Rubalskaya tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 47 % voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy ta'siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo'qligining, 38,3% ota yoki onani yo'qligining, 23,5 %

kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi.

O'smir yoshdagilarga xos xususiyat shundaki, tashqi jihatdan va o'z da'volariga ko'ra bu katta yosh, ichki xususiyatlari va imkoniyatlariga ko'ra esa, ular hali bola. O'smirlarning erkalashga, o'ziga e'tibor berilishiga moyilligi, o'yin qaroqligi mana shu bilan bog'liq. Shu bilan birga o'smirlarda o'zining katta yoshli bo'layotganligini his etish bilan birgalikda ong, o'z qadriyatini his etish, jinsiy mansubligini anglash uyg'onadi va faol shakllanadi. O'smirlik yoshi o'zida har xil ruhiy jarohat yetkazadigan omillar ta'siriga tutish xavfi yuqori darajada bo'lgan shart-sharoitlar jamini ham ifodalaydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlar buyicha ota-onalar o'rtasidagi urush-janjallar, o'smirning nuqtainazariga ko'ra ularda o'smirni va atrofdagilarni kamsitadigan nuqsonlarning mavjudligi, o'smirlarga nisbatan haqoratlovchi munosabat bo'lish, unga ishonmaslik yoki uni hurmat qilmaslik mana shunday kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardandir.

Bularning barchasi bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonini qiyinlashtiradi va mana shu asosda ularning hulq-atvorida har xil chetga chiqishlarni keltirib chiqaradi.

O'smir huquqlari o'zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o'ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o'z taqdiri hamda o'z harakatlari uchun ma'suliyatiga bog'liq.

XULOSA

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi,

qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so‘zsiz bo‘ysunishi madaniyatiga ega bo‘lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasidaǎ T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G‘.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2005,120-127 b 5. [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).